Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: https://universaljurnal.uz

Universal International Scientific Journal
e-ISSN: 3060-4540 (online)
Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9
Published: 02.12.2024 https://universaljurnal.uz

International indexes
GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

**Niyozova Dildora Nuriddin qizi.,**
**Tojiboyev Murodali Umaraliyevich**
Andijon davlat pedagogika instituti
**Uzbekistan**

# XITRIDIOMITSETLAR SINFINING UMUMIY TAVSIFI VA KO'PAYISH USULLARINI O'RGANISH

**Abstract:** This article provides a general description of the class Chytridiomycota and their methods of reproduction. Chytridiomycota are a class of fungi, most of which live in aquatic environments. They are distinguished by their unique morphology and life cycles. The article presents the morphological features, classification, and ecological role of Chytridiomycetes. It also provides a complete analysis of the processes of reproduction, including sexual and asexual reproduction, spore dispersal, and their life cycle. The biological and ecological significance of Chytridiomycetes, their role in agriculture and medicine, and considerations are also given. The article is useful for specialists interested in scientific research and will help to better understand the mechanisms of reproduction of this class.

**Keywords:** chytridiomycetes, isogamy, heterogamy, oogamy, holocarpic, eucarpic, chitin.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xitridiomitseatlar sinfi (Chytridiomycota) haqida umumiy tavsif va ularning ko'payish usullari o'rganiladi. Xitridiomitseatlar - zamburug'larning bir sinfi bo'lib, ularning

koʻpchiligi suvli muhitlarda yashaydi. Ular oʻzining unikal morfologiyasi va hayotiy tsikllari bilan ajralib turadi. Maqolada Xitridiomitseatlarning morfologik xususiyatlari, tasniflashda oʻrni, va ekologik roli keltirilgan. Shuningdek, koʻpayish jarayonlari, shu jumladan jinsiy va jinsiz koʻpayish usullari, sporalarning tarqalishi va ularning hayot tsikli toʻliq tahlil qilinadi. Xitridiomitseatlarning biologik va ekologik ahamiyati, ularning qishloq xoʻjaligi va tibbiyotdagi oʻrni haqida ham fikrlar keltirilgan. Maqola ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqqan mutaxassislar uchun foydali boʻlib, bu sinfning koʻpayish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Kalit soʻzlar:** chytridiomycetes, izogamiya, geterogamiya, oogamiya, xolokarpik, eukarpik, xitin.

**Аннотация:** В статье дано общее описание класса Хитридиомицеты (Chytridiomycota) и способов их размножения. Хитридиомицеты — класс грибов, большинство из которых обитают в водной среде. Они отличаются уникальной морфологией и жизненным циклом. В статье представлены морфологические особенности хитридиомицетов, их роль в классификации и экологическая роль. Также тщательно анализируются репродуктивные процессы, включая половое и бесполое размножение, распространение спор и их жизненный цикл. Обсуждается также биологическое и экологическое значение хитридиомицетов, их роль в сельском хозяйстве и медицине. Статья полезна специалистам, интересующимся научными исследованиями, которые помогают лучше понять механизмы воспроизводства этого класса.

**Ключевые слова:** хитридиомицеты, изогамия, гетерогамия, оогамия, голокарпик, эукарпик, хитин.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Niyozova , I., & Tojiboyev , M. GENERAL DESCRIPTION OF THE CLASS OF CHYTRIDIOMYCETES AND STUDY OF THE METHODS OF REPRODUCTION. Universal International Scientific Journal, 1(9), 22–25. Retrieved from https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1203

**Doi:** https://doi.org/10.5281/zenodo.14293779

Xitridiomitsetsimonlar suv sharoitida o'sishga moslashgan bo'lib, suvo'tlarida, umurtqasiz hayvonlarda parazitlik qiladi. Saprotrof vakillari suvdagi o'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadi. Parazit vakillarining vegetativ tanasi xo'jayin to'qimasi ichiga kirib olib, butun tanasi bilan osmotrof oziqlanadi. Ularning tanasi 2 xil shaklda mavjud bo'ladi. Vegetativ tanasi sporangiylarga aylanadi, bunday shaklga xolokarpik shakl deyiladi. Ayrim vakillarida esa vegetativ tananing bir qismi zoosporangiylarga aylanadi. Bunday shaklga eukarpik shakl deb ataladi. Barcha zabumburug'lar singari,

xitridiomitsetsimonlarning hujayra devorlarida ham sellyuloza, ham xitin mavjud. Ko'pchilik zamburug' vakillari bir hujayrali; biroq bir nechtasi ko'p hujayrali organizmlar va gifalarni hosil qiladi, ularda hujayralar o'rtasida bo'laklar bo'lmaydi (koenotsitik). Xitridiomitsetlar chuchuk suv va dengiz organizmlari, qisman tuproqda uchraydi, ularning 1000 ga yaqin turlari mavjud.

Chytridiomycetes zamburug'larini o'rganishda ko'payishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Ularga bir xivchinli zoosporalar yordamida jinssiz ko'payish xos, jinsiy jarayon esa, uning klassifikatsiyasida tallomining rivojlanishiga va jinsiy jarayonni qanday o'tishiga bog'liq. Barcha turlarida jinsiy ko'payish izogamiya, geterogamiya, oogamiya, xologamiya usullari bilan o'tadi.

Ko'pincha xitridiomitsetsimonlar bir hujayrali: bitta hujayra zoosporadan o'sadi va oxir oqibat ko'proq zoosporalar hosil qiluvchi bir hujayrali sporangiyga aylanadi. Ba'zi turlarda sporangium butunlay po'st hujayra ichida rivojlanadi, ba'zida ildizga o'xshash rizoidlar hosil qiladi. Boshqa turlar mezbon hujayraga kirib, uning ichida rizoidlarni rivojlantiradi. Ularning zoosporalarida uncha katta bo'lmagan membranali tana bo'ladi, u hech qaysi organizmda uchratilmagan, u oqsil g'amlasa kerak deb taxmin qilinadi. Zoosporadagi ribosomalar sitoplazmada tarqoq yoki guruhlarga to'planib joylashgan. Ular yadroni ustida xuddi yopqich ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Xitridiomitsetsimonlar sinfi 3 ta tartibga bo'linadi: xitridiylilar (Chytridiales), blastokladlilar (Blastocladiales), monoblefaridlilar (Monoblepharidales). Xitridiylilarning vakillari jinssiz zoosporalar va jinsiy gametangiogamiya usulida ko'payadi. Blastokladlilarning jinssiz ko'payishi zoosporalar yordamida boradi. Zoosporalarning orqa tomonida faqat bitta silliq xivchini bo'ladi. Shu xivchin yordamida amyoboid harakat qiladi. Bundan tashqari zoosporaning yadrosi qalpoqchali bo'ladi. Jinsiy ko'payishi izogamiya va geterogamiya usulida ro'y beradi. Monoblefaridlilar jinssiz zoosporalar va jinsiy oogamiya usulida ko'payadi. Tropik o'rmonlarning tuproq betida monoblefarella turi uchraydi. Uning oogoniyasida bir yoki bir qancha tuxum hujayra bo'ladi, tuxum hujayra urug'langandan so'ng oogoniya ichidan chiqib, spermatazoid xivchinlar yordamida bir necha vaqt suzib, zigotaga aylanadi. Zigota uzoq vaqtgacha quruqlikda saqlanish qobiliyatiga ega.

Xitridiomitsetlarning ko'pchilik vakillari parazit bo'lib, o'simlik va hayvonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning kuzatishlariga qaraganda, olpidium va sinxitrium zoosporalari o'simliklarni virus bilan

kasallantiradi.Kartoshkaning rak kasalligi Amerika, G'arbiy Yevropa, Janubiy Amerika va Yaponiyada keng tarqalgan bo'lib, hosildorlikni 50-60% pasaytirib yuboradi.

Xitridiomitsetsimonlarni ko'payish usullari tahlil qilinganda, ular jinnsiz zoosporalar orqali va jinsiy izogamiya, geterogamiya, oogamiya usullarida ko'payishi aniqlangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.Velikanov.L.L. Tuban o'simliklar – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 392 b.
2. Tojiboyev.Sh.J. Qarshiboyeva.N.H. Mikologiya,Algologiya. – Jizzax: Sangzor, 2014. – 208 b.
3.https://milnepublishing.geneseo.edu/botany/chapter/chytrids/
4.https:/courses.lumenlearning.com/wm-biology2/chapter/Chytridiomycota/